QUROQCHILIK SAN'ATINING TARIXIY AN'ANALARDAGI O'RNI

Tajimurodova Durdona Shuxrat qizi - Guliton davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada milliy xalq hunarmandchiligi turlaridan bo'lgan "Quroqchilik" san'atining tarixiy an'analari haqida kengroq fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Quroqchilik, san'at, dekatrofka, amaliy san'at, badiiy bezak, anana, mag'zli kvadrat , quroq.

Qadim tariximizdan ma'lumki ota-bobolarimiz quroqchilk san'atining mohir ustalaridan bo'lishgan . O'rta Osiyo xususan hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan o'lkalaridan biri bo'lib, bu xalq hunarmandchiligi avloddan-avlodga boy meros sifatida o'tib kelmoqda .

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi, Xalq hunarmandchiligining "Quroqchilik" sohasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan "Talim to'g'risidagi qonun"da hamda, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturining qabul qilinganligi, bu sohada olib borilayotgan ishlar namunasidir. Mato parchalaridan iborat bo'lgan bu amaliy san'atni ko'rganda kech bir kimsa bee'tibor bolmaydi albatta. Quroq bu har xil rangdagi materiallarni matoga yopishtiriish yoki tikishdan hosil bo'ladigan badiiy bezak turi. Quroqchlik san'ati o'ziga xos tayyorlanishga ega bo'lib, bu quroq tikayotgan insonning sabr toqatini hamda yanada go'zalroq yangilklar yaratish sezgisini rivojlantiradi. Quroqchilik sohasi sabr-toqatlilikni hamda mehnatsevarlikni talab qiladi. Bunaqa tikish san'ati esa "Quroqchilk" deb ataladi .

Biz hozirgi kunda quroqchilik tarixiga nazar soladigan bo'lsak, quroqchilik san'ati ildizini Sharqdan topish mumkin. Masalan Yegiptda ya'ni Kair shahrining chekka qishloqlarida bundan 3000 yil avval tikilgan narsalar topilgan. Keynchalik quroqlardan uylar bezashda va ro'zg'or mahsulotlar tayyorlanib asta- sekin dunyo bo'ylab barcha xalqlar orasida tarqaldi va bu xalq amaliy san'atiga aylandi. O'zbekistonning barcha viloyatlari shu jumladan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida "Quroqchilik" san'ati bilan shug'ullanishdi. Surxondaryo viloyatida bu san'at turi asosan, "kvadrat", "shaxmat", "turna", "yulduzcha" va xakozo shakillaridan foydalanildi. Gazlama qoldiqlarini isrof qilmaslik maqsadida, ko'rpa, ko'rpacha, dasturxon, chimildiq, poyandoz kabi narsalar tikildi. Quroqchilk buyumlarini tayyorlashdan maqsad, hozirgi kunda unutilayotgan quroqchilik san'atini qayta tiklashdir.

Quroq - bu bitta buyumdan rang va shakl turiga bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan ko'plab buyumlar tikish hamda kiyimlar uchun tayyorlash ham mumkin. Quroq usullarida iistalgan gazlamadan ham yangi yoki avval ishlatilgan gazlamalardan foydalanish nazarda tutiladi. Yangi gazlamani ishlatishdan avval dekatrofka (ipak va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli) bug'lash lozim. Chunki bitta buyumdan tayyorlanganda bir nechta gazlamalar ishlatiladi va natijada buyumlarni yuvganda o'z ko'rinishlarini yuqotshi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarini esa kraxmallash va dazmollash kerak. Paxta tolali gazlama qoldiqlarini ishlatish uchun qulay hisoblanadi.

Inson bilan tabiatning uyg'un munosabatlari to'g'risidagi ana shu g'oyalar Muvorounnahrda musulmon davriga juda katta hissa qo'shgan. Markaziy Osiyodagi so'fiylar ta'limotlari uchrashi ham tasodif emas. Shu misollar bizga chuqur ma'no kasb etadi.

Hozirgi kunda yoshlarga bilim berish bilan birga, ularga hunar o'rgatish, milliy urf - odatlarimizni va ularning tarixini o'rganish, hayotda o'z yo'llarini topib qiynalmasliklari uchun har xil to'garaklar ish olib borilmoqda. Bundan tashqari ham yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari keng rivojlantirilmoqda va bu boradagi natijalar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib hozirda tashkil qilingan san'at va madaniyat markazlari , hunarmandchilik maktablarini olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.M.G'ulomov Amaliy san'at – Toshkent . 2008

2. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahmjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodkasi – Toshkent Voris -Nashriyot, 2012.

3. S.S.Bulatov O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati – Toshkent, 1991.